

**MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIM FANINI TAKOMILLASHTIRISHDA
INNOVATSION QOBILIYATNI OSHIRISH UCHUN QO'LLANILADIGAN
AMALIY USULLAR VA ULARNING AHAMIYATI.**

*Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi
metodik bo'lim boshlang'ich ta'lim metodisti
Mirzabekova Nargiza Qoraqulovna*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion qobiliyatni shakllantirish va rivojlantirishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ta'lim samaradorligini oshirish uchun qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, loyiha asosida ta'lim, STEAM yondashuvi va boshqa amaliy usullar ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, innovatsion qobiliyat, pedagogik texnologiya, interaktiv metod, STEAM, ijodkorlik, loyiha asosida ta'lim.

**ТЕМА: ПРАКТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ ДЛЯ
ПОВЫШЕНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА В УЛУЧШЕНИИ
НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ, И ИХ ЗНАЧЕНИЕ.**

*Джизакский областной центр педагогического мастерства
методист методического отдела начального образования
Мирзабекова Наргиза Каракуловна*

Аннотация: В статье рассматривается важность формирования и развития инновационных способностей в процессе начального образования, анализируются современные педагогические технологии, интерактивные методы, проектное обучение, STEAM-подход и другие практические методы, используемые для повышения эффективности образования.

Ключевые слова: начальное образование, инновационные навыки, педагогические технологии, интерактивный метод, STEAM, креативность, проектное обучение.

**TOPIC: PRACTICAL METHODS USED TO INCREASE INNOVATIVE
CAPACITY IN IMPROVING PRIMARY EDUCATION AND THEIR
IMPORTANCE.**

*Jizzakh Regional Pedagogical Skills Center
methodologist of the methodological department of primary
education*

Abstract: This article highlights the importance of forming and developing innovative ability in the primary education process. It also analyzes modern pedagogical technologies, interactive methods, project-based learning, the STEAM approach and other practical methods used to increase educational efficiency.

Keywords: primary education, innovative skills, pedagogical technology, interactive method, STEAM, creativity, project-based education.

Kirish

“Yaxshi ta’lim adashishga yo‘l qo‘ymaydigan darajada sekin va zerikishga yo‘l qo‘ymadigan darajada tez bo‘lishi kerak “Sidni Dj. Xarri

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida mustaqil fikrlay oladigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan yosh avlodga sifatli ta’lim-tarbiya berish bugungi kun pedagoglarining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ta’lim bu shaxsning intellektual, ma’naviy, jismoniy va madaniy rivojlanishining asosi, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, iqtisodiy farovonligi hamda jamiyat va davlat rivojlanishining umumiy qadriyatlar va madaniyat bilan birlashtirilgan kalitidir.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimida kechayotgan islohotlarning bosh maqsadi – raqobatbardosh, keng dunyoqarashga ega, kreativ tafakkurli shaxslarni tarbiyalashdir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning innovatsion qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davrda o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan qiziqish, mustaqil fikrlash va ijodkorlikning poydevori yaratiladi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘qituvchining ta’lim jarayonida samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarni yaxshiroq o‘qitish imkoniyatini yaratadi va ta’lim muhitini yanada ijobiy qiladi. O‘qituvchilarning yuqori malakasi va ko‘nikmalari, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 8-oktabrdagi “Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da ta’limning barcha bosqichida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ijodkorlik va tashabbuskorlikni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Shu bois, boshlang‘ich ta’lim fanlarini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar asosiy omil hisoblanadi.

O‘qituvchi deganda – zamon bilan hamqadam bo‘lgan jonkuyar, ziyoli shaxsni, maktab deganda – bilim va ma’rifat yog‘dusi taralib turadigan, Uchinchi Renessans poydevori qo‘yiladigan tabarruk maskanni ko‘z oldimizga keltiramiz.

Barchangizga ma’lumki, Hurmatli Prezidentimiz boshchiligida mamlakatimizda “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi”, degan ezgu g‘oya asosida bu sohada katta ishlar amalga oshirilmoqda. Interfaol metodlar boshqa metodlar singari

o'quv mashg'ulotining tarkibiy qismi sifatida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini tashkil etishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, texnologik jarayonning to'liq amalga oshirilishi uchun xizmat qiladi. Interfaol metodlarning eng asosiy xususiyati o'quvchilarni faollashtirish va fikrlashini rivojlantirishga imkon berishidir. Ularni mutloqlashtirib qo'yish ham o'rinli emas, chunki interfaol metodlar yangi bilimlarni berishga xizmat qilmaydi. Ana shu sababli ular bir necha asrlardan buyon qo'llanib kelayogan suhbat, hikoya, tushuntirish, ko'rsatish, namoyish etish, didaktik o'yin kabi metodlarni chetga surib qo'ya olmaydi. O'quvchilarni bilimlar bilan qurollantirmasdan turib, ularni fikrlashga va faollikka undab bo'lmaydi. Chunki "bo'sh bosh fikrlamaydi", fikr yuritish uchun narsa-hodisa haqida yetarlicha bilimga ega bo'lish kerak!

Boshlang'ich sinf o'quvchisining fikri mustaqilligi - tashabbuskorligi insonning o'z oldiga aniq maqsad va vazifalar qo'yishi, ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan usul hamda vositalarni qo'llashida namoyon bo'ladi. Bu faoliyatning pishiqligi vazifalarni tez bajarish, bu jarayonda qo'l keladigan usul va vositalarni tezkorlik bilan izlab topish, ularni farqlashda ko'rinadi. Aqliy faoliyat tanqidiyligi esa mustaqil fikrlovchining voqea-hodisaga munosabati, uning xususiyatlarini ajrata bilishida namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. Haqiqatdan ham inson fikri mustaqilligi bo'lgandagina o'z oldiga ulkan maqsadlar qo'ya oladi va shu maqsad yo'lida qadam-baqadam odimlashdan to'xtamaydi. O'z maqsadi yo'lidagi qiyinchiliklarni ham fikr mustaqilligi va teranligi tufayligina qiynalmasdan tez va oson yengib keta oladi. Aynan biz ham bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim tarbiyasida ham ana shunday murakkab vaziyatlardan uddaburonlik va o'zining fikr mustaqilligi bilan yo'l topib keta oladigan shaxslarni tarbiyalash oliy maqsadimizdir. Insonda tafakkur faqatgina ta'lim-tarbiya jarayonida shakllantirilmaydi, faqatgina ta'lim-tarbiya institutlarida fikrlashga o'rgatilmaydi. U har qaysi ruhan sog'lom bo'lgan insonga hos bo'lgan aqliy-jismoniy hosila hisoblanadi. Bu hosila har bir kishida o'ziga xos tarzda o'z intellektual imkoniyatlari darajasida mavjud bo'ladi.

Innovatsion qobiliyat – bu yangi g'oyalarni ilgari surish, muammolarga noodatiy yondashish, mavjud bilim va ko'nikmalar asosida yangilik yaratish qobiliyatidir. Boshlang'ich ta'limda ushbu qobiliyatni shakllantirish:

- o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi;
- texnologik tafakkurni shakllantiradi;
- o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi;
- kelajakda innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni ta'minlaydi.

O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tadbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil

ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi.

2. Innovatsion qobiliyatni rivojlantirishda qo'llaniladigan amaliy usullar:

2.1. Interaktiv metodlar: O'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o'qituvchilar turli didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini taxminlashda zamonaviy o'qitish metodlari - interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan mashg'ulotlarda "Aqliy hujum", "Klaster", "Bumerang", "Insert" Matematik pazl", "Akvarium", "Matematik loto" o'yini "3x4" kabi metodlardan foydalanish o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga, o'z fikrini erkin bayon qilishga va hamkorlikda ishlashga o'rgatadi.

2.2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari: Ta'lim tizimining hozirgi holati axborot kommunikatsiya texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Raqamli jamiyatga o'tish jarayonida inson faoliyatining turli sohalarini axborotlashtirilishi va raqamlashtirilishi jamiyatda axborot madaniyatini shakllantirishning zaruriyatini oshiradi.

Interaktiv taxtadan foydalanish, multimediali taqdimotlar, 3D o'lchamdagi raqamli texnologiyalarni qo'llash, elektron darsliklar ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. AKT o'quvchilarda mustaqil izlanish ko'nikmasini shakllantiradi va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlaydi.

2.3. Loyiha asosida ta'lim (Project-based learning): Loyiha asosida ta'lim (Project-based learning) o'quvchilarda hamkorlikda ishlash, mas'uliyatni his qilish, muammoni hal etishda ijodiy yondashishni shakllantiradi. Masalan, tabiat, texnika yoki ijtimoiy mavzularda kichik loyihalar tayyorlash orqali o'quvchilar nafaqat bilim oladi, balki uni amaliyotda qo'llashni ham o'rganadi. Loyiha ishining asosiy maqsadi nazariy bilim va ko'nikmalarni real muammolarni hal qilish yoki muayyan mavzularni har tomonlama o'rganish uchun qo'llashdir. Loyiha ishining tabiati va ishtirokchilar tomonidan qo'yilgan maqsadlarga qarab haftalar, oylar va hatto yillar davomida davom etishi mumkin.

2.4. O'yin texnologiyalari: Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yin darslari bu boshqa psixologik holatda o'tish, o'zaro muloqotning o'zgacha ko'rinishi, ijodiy hissiyotlar, o'zini yangicha sifatda his etishdir. o'qituvchi o'yin texnologiyasi orqali o'quvchini yaxshiroq bilishi va tushunishi, o'quvchining individual xususiyatlarini baholashi, o'zaro munosabatlarda bo'ladigan muammolarni hal etish imkonini beradi. O'yinlar emotsional hissiyotlarga boy jarayon bo'lgani uchun o'yin jarayonida o'quvchi hayajonlanadi, o'z muvaffaqiyatlaridan quvonadi, o'z kuchini yana bir bor sinab ko'rish istagida bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar, interfaol mashg'ulotlar qo'llanilishi o'quvchilarda bilimlarni mustahkamlaydi, qiziqishni oshiradi va o'qish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2.5. STEAM yondashuvi: STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) – fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani integratsiya qilish orqali o'quvchilarda keng qamrovli bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi. Bu usul yoshlarni amaliy faoliyatga tayyorlaydi va kelajak kasblariga yo'naltiradi. STEM o'qitish - bu bolalarimizning mahoratini yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradigan innovatsion metod. Uning yordami bilan biz iqtisodiy jihatdan mustaqil va raqobatbardosh mamlakat bo'lishimizga imkon beradigan ilg'or kadrlar bazasini shakllantirishimiz mumkin. STEM ta'limining afzalliklari: 9 ilmiy va texnik bilimlarni real hayotda qo'llash; 9 tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni hal qilish; 9 texnik fanlarga qiziqishni rivojlantirish; 9 har bir bolaning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalar faoliyati orqali texnik ijodkorlik motivatsiyasini rivojlantirish.

STEAM yondashuvining asosiy xususiyati shundaki, bunda o'quvchilar ko'pchilik fanlarni samarali o'rganishda aqli va qo'l mehnatidan foydalanishadi, amaliy bilimlarni mustaqil egallashadi. O'quvchilar o'quv mashg'ulotlarida tajribalar o'tkazishadi, modellarni konstruksiyalaydi, robotlarni yasashadi, o'z g'oyalarini amalga oshiradilar va mahsulot yaratishadi, bundan ko'zlangan natija shuki, "texnika asri"da kasb mutaxassisliklari zaruratini hozirdan bashoratlash, jahon hamjamiyati talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, tabiiy va aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish orqali iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishga erishishdan iborat. STEAM ta'limining afzalligi shundaki, fanlarni o'qitish farqli o'laroq bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda beradi. Bola o'zida nostandart muammolarni yechish, imkoniyatlar yaratish va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantiradi va bu kelgusida uning hayotida juda qo'l keladi³. STEAM o'quvchilarning loyiha va o'quv-tadqiqot faoliyatini maktabda va maktabdan tashqarida amalga oshirish uchun, albatta, maktablarda "STEAM laboratoriya xonasi"ning bo'lishi shart.

2.6. Muammoli vaziyatli topshiriqlar: Muammoli vaziyat yaratish orqali o'quvchilarni noodatiy fikrlashga undash innovatsion qobiliyatni kuchaytiradi. Bunda o'quvchi muammoni tahlil qiladi, turli g'oyalar ilgari suradi va eng maqbul yechimni

topishga harakat qiladi. Muammoli vaziyat” metodi- o`quvchilarda muammoning murakkabligi ,sabab, oqibatlarini tahlil qilish ,ularning yechimini topish, eng to`g`ri xulosaga kela olish ko`nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Metod uchun muammo tanlashda murakkablik darajasi o`quvchining yoshi , bilim darajasi, muammoning yechimini topa olishiga qodir bo`lishiga e`tibor qaratish lozim. Muammoli vaziyat” metodi orqali o`quvchilarning aqliy rivojlanishiga ,bilim olishga intilishiga,ularda barcha faoliyatlarda zarur bo`lgan axborotlarni ,voqea hodisalarni ongida qayta ishlashlariga yordam beradi.

3. Amaliy usullarning ahamiyati

Innovatsion usullarni qo`llashning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo`ladi:

- o`quvchilarda ijodkorlik va tashabbuskorlikni rivojlantiradi;
- bilimlarning chuqur va mustahkam o`zlashtirilishini ta`minlaydi;
- ta`lim jarayonida faollik va mustaqillikni oshiradi;
- yosh avlodni raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantiradi;
- ta`limni innovatsion muhitga aylantiradi.

Boshlang`ich ta`limda innovatsion qobiliyatni rivojlantirish uchun amaliy usullardan samarali foydalanish ta`lim samaradorligini oshiradi, o`quvchilarni mustaqil va kreativ fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiradi.

Yurtimizda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda o`qitishning ilg`or uslublarini joriy etish yo`li bilan o`sib kelayotgan yosh avlodni XXI asr ko`nikmalariga ega bo`lishi, chet tillarini o`qishi, shu tillarda erkin so`zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko`lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari ma`lum bir yangi ma`lumotlarni, bilimlarni tez va oson egallab olishlari uchun ularga ta`limiy faoliyatlar o`qituvchilar tomonidan to`g`ri va aynan, bolalarning yosh, individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Shundagina bolaning ijodkorlik qobiliyati, aqliy salohiyati, faolligi va hayotiy hodisalarga bo`lgan mustaqil fikriy faolligi oshadi. Bugungi kunda pedagogika, psixologiya fani aqliy tarbiya vazifalarini samarali hal etish birinchi navbatda bolaning imkoniyatlaridan to`g`ri foydalanishni, ikkinchi tomondan bola organizmining charchashiga sabab bo`ladigan ortiqcha zo`rayish bo`lmasligi kerak, degan fikrni ilgari suradi. To`g`ri tashkil etilgan dars jarayonidagina to`laqonli aqliy rivojlanish ro`y beradi. AKT, loyiha asosida ta`lim, STEAM yondashuvi va o`yin texnologiyalari boshlang`ich ta`limni takomillashtirishda muhim o`rin tutadi.

Shunday ekan, o`qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni puxta o`zlashtirib, ularni dars jarayonida qo`llash orqali o`quvchilarning innovatsion

qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Bu esa nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. – T.// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.
2. M.Pardayeva. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning metodik tizimi boshqarish. Ped. fan. dok. (PhD) ... diss. – T. : 2020.
3. M.Pardayeva, M.Ergasheva, F.Karimov Ta'lim sifatining baholashning PISA xalqaro tadqiqot dasturini amalga oshirish. Metodik qo'llanma. OOO "Ziyo press" – Toshkent. 2020 yil. B. 86
4. M.Yuldashev. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish. Ped. fan. dok. ... diss. – T.: 2016.
5. Qodirova F. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2022.76.
6. Usmonov A., Ergasheva Z. Boshlang'ich ta'limning zamonaviy tendensiyalari: ta'lim va tarbiya integratsiyasi xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiyasi. 2022. 19- b.
7. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali. 2000-2007-yy. 7. Doniyorov A.
8. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris, 2017.